

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари”** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTIRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLAR 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024

Accepted: 15 December 2024

Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

BORROWED WORDS IN THE NOMINATIVE SYSTEM OF THE LANGUAGE

Akhmedov Anvar Botirovich,

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor of Karshi State University

Abstract. The article is devoted to the study of the place of borrowings in the modern German language in the nominative system, as well as the process of updating and enriching the vocabulary through borrowings.

Keywords: borrowing, foreign word, nominalization, semantic motivation, interlingual relations.

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR

Axmedov Anvar Botirovich,

Qarshi davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqola hozirgi nemis tilida o'zlashma so'zlarning nominatsiya tizimida tutgan o'rni, shuningdek leksikaning o'zlashma so'zlar orqali yangilanib va boyib borish jarayonini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'z, boshqa tilga xos so'z, nominatsiya, semantik motivlanish, tillararo aloqalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N22.1>

Kirish. O'zlashma so'zlar turli tillarda tarixan til lug'at tarkibining boyishiga har xil ta'sir ko'rsatgan. Ayrim tillarda ularning ta'siri lug'at tarkibida sezilmaydigan darajada o'z aksini topgan bo'lsa, boshqa tillarda esa turli tarixiy davrlarda lug'at tarkibining boyishiga salmoqli ta'sir ko'rsatib kelgan. O'zlashma so'zlar, nafaqat nomlash jarayoni, balki semantik motivlanish nuqtai nazaridan ham leksikaning alohida qatlamini tashkil qiladi. Bu tillararo aloqalar va boshqa til sotsiumlari ta'siri ostida mazkur til jamoasi tajribasining ortib borishi bilan yuzaga keluvchi nominatsiyaga bo'lgan talab uchun maqbul javoblardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tillararo aloqalarni o'rganish sohasini alohida fan sifatida ajratish va uning mustaqil fan maqomini olishiga to'sqinlik qiluvchi omillarning asl sababini topish muammosi tilshunoslik fani taraqqiyotining ilk davrlariga borib taqaladi. Tillarni o'rganishda izchillikning yo'qligi va uning tadqiqot obyekti sifatida (ketma-ket naturalizm, mladogrammatizm, struktur va generativ lingvistikaga xos bo'lgan) ideallashtirilishi nutqiy muloqotning ekstralingvistik omillarini, shuningdek tillarning o'zaro ta'sirini aniqlab beruvchi jihatlarni butunlay rad etadi. Yuzaga kelgan vaziyatning murakkabligi internatsional (xalqaro) so'zlarni o'rganish jihati bilan xarakterlanadi. Bunday so'zlar, odatda internatsionalizmlar, shuningdek bir tildan ikkinchi tilga o'tuvchi birliklar, deb ham ataladi [2; 68-b.].

O'zlashma so'zlarni tushunishda an'anaviy yondashuv yetakchilik qiladi. Ushbu sohada ko'zga ko'ringan mutaxassis L.P.Krisinning fikriga e'tibor qaratamiz: «O'zlashma so'z – tillararo aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga o'tkazilgan o'zga til elementi (so'z, morfema, sintaktik konstruksiya va shu k.), shuningdek, bir tildan boshqa tilga elementlarning o'tish jarayonidir» [4; 14-b.]. Lingvistik terminlar lug'atida [1; 471-b.] o'zlashma so'zlarga «kelib chiqishi o'zga tillarga xos so'zlar», – deya ta'rif berilgan. Boshqacha aytganda ular «boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar»dir. Biroq zamonaviy tilshunoslikda «boshqa tilga xos so'z» va «o'zlashma so'z» terminlari ma'nosi o'zaro mos emas. Boshqa tilga xos so'z o'zlashma so'zdan nemis tili tizimiga orfografik va fonetik jihatdan to'liq moslashmaganligi bilan farqlanadi [6; 36-b.]. Boshqa tilga xos so'z o'zining dastlabki shaklini, ya'ni orfografiyasi, fleksiyasi, tovush shaklini hozirga qadar saqlab qolgan so'zlardir. Masalan: nem. die Saison [s'z] < frans. saison. Tea Schippan [7; 263-b.] o'zlashma so'zga „nemis tiliga to'la qabul qilingan hamda moslashgan, til sohiblari tomonidan chet so'z deb qaralmaydigan, shuning uchun nemis tiliga tegishli chet til birligi“ deb ta'riflaydi. Bizningcha ham o'zlashma so'z – bu qabul qiluvchi til tizimiga ma'lum darajada assimilyatsiyalashgan so'zdir. Masalan: nem. die Memoiren < frans. les memoires.

Ba'zi so'zlar uzoq vaqt «boshqa tilga xos so'z» sifatida qoladi, boshqalari esa, ayni paytda tezda «o'zlashma so'z»ga aylanadi. Ular o'rtasiga aniq chegara qo'yishning har doim ham imkoni bo'lavermaydi. Shuning uchun ularni umumiy planda tadqiq etishda, ham «o'zlashma so'z»larni, ham «boshqa tilga xos so'z»larni chuqur o'rganishga to'g'ri keladi [5; 91-b.].

Muhokama. O'zlashma so'z nutqning paydo bo'lishida til ifoda vositalarini ma'lum darajada tejaydi, shu sababli mazkur tilda yuzaga keluvchi nominativ bo'shliqni to'ldirish uchun boshqa tildagi tayyor birliklardan foydalaniladi.

Ayni paytda so'z oluvchi tilda oldindan mavjud bo'lgan assotsiativ aloqalarni to'xtatish so'z beruvchi tildagi o'zlashma so'zlarga xos bo'lgan semantik motivlanishni ham yo'qotishga olib kelishi mumkin. Bu nutqni idrok qilish jarayonida ular ifodalaydigan ma'noni aniqlab olishda jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Bir til elementlaridan boshqa tilda foydalanish jarayoni sifatida o'zlashma so'z shu tarzda til belgisining dialektik jihatdan birining boshqasini inkor qiluvchi tabiatiga bog'liq: 1) til belgisining so'z o'zlashtirishga imkon darajasida yo'l qo'yuvchi sifatida erkinligi; 2) uning so'z o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida erkin emasligi. Balki, aynan shu sababli so'z o'zlashtirish jarayoni ayrim tillarda mahsuldor emas. Nominatsiyaning so'z yasalishi va semantik derivatsiya kabi jarayonlari son jihatdan ancha ortda qolmoqda. Qolaversa, yuqoridagi fikr nemis tiliga o'xshagan tillarda o'zlashma so'zlar soni e'tiborga molik emas, degan ma'noni anglatmaydi.

Demak, nemis tili leksikologiyasida boshqa tillar bilan ko'p asrlik aloqalar natijasi sifatida atroflicha o'rganilgan o'zlashma so'zlar masalasi borasida quyidagi qiziqarli ma'lumotlar e'tiborga molik:

- o'zlashma leksika dunyodagi ellikka yaqin tildan kelib chiqqan;
- bu o'zlashma so'zlar nemis tili umumiy lug'at tarkibining qariyb 70 foizini tashkil etadi;
- leksikaning o'zlashma so'zlar qatlami turli tarixiy davrlarga borib taqaladi hamda tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotidagi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, geografik va boshqa har xil sharoitlarga bog'liq.

Natijalar. Hozirgi umumiy va qiyosiy-tipologik tilshunoslik o'zlashma so'zlar va tillararo aloqalarning o'zaro munosabati masalasini quyidagi nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tadqiq etishga yo'naltirilgan: so'z o'zlashtirish har qanday tilga xos jarayon hamda lug'at

tarkibining ajralmas qismi ekan, bu mavzu har doim muhim va dolzarb bo'lib qolaveradi. Haqiqatdan ham, jonli til – muttasil rivojlanib boruvchi hodisa. Yangi narsa va predmetlar paydo bo'ladi, keraksiz, ortiqchalari esa iste'moldan chiqib ketadi. Shu sababli ham bu borada leksikologlar oldida yechimini kutayotgan ko'plab muammolar turibdi.

Bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan integratsiyalashuv tendensiyasi shunga olib kelmoqdaki, turli mamlakatlar madaniyatidagi umumiy jihatlar tobora ortib borgan sari, mavjud farqlar kun sayin kamayib bormoqda. Mazkur tendensiya jamiyat hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarni o'zida aks ettiruvchi tilga ham xos bo'lib, bunga javoban til leksik o'zlashmalar bilan muntazam boyib bormoqda.

Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida so'z o'zlashtirish jarayoni tilni boyitishning muhim vositasidir. Shu sababli ko'plab tilshunoslarni xorijiy tilga xos leksikaning qo'llanishi va uning o'z qatlam leksika bilan o'zaro munosabatini o'rganish masalasi qiziqtirib qo'ydi.

Hozirga qadar lug'atlarda qayd qilingan o'zlashma so'zlarga tadqiqot obyekti bo'lib keldi. Ular bilan bir qatorda leksikografik manbalarda qayd etilmagan ko'plab o'zlashma so'zlar ham mavjud. Shunisi diqqatga sazovorki, ular til tizimiga faol o'zlashish bosqichida turibdi. Shu sababli til tizimiga kirish bosqichida turgan eng yangi o'zlashma so'zlarni har tomonlama tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, ularning etimon (so'zning ilk shakli yoki ma'nosi) va tilda oldindan mavjud bo'lgan so'zlardan farqlovchi xususiyatlarini tahlilga tortish amaliy zarurat ekanligi, shak-shubhasiz.

O'zlashma so'zlar tadqiqiga turli xil nuqtai nazardan yondashish mumkin. So'nggi yillarda nemis tiliga oxirgi 10-15 yil ichida kirib kelgan inglizcha o'zlashmalar tadqiqot obyekti qilib olinmoqda. Tadqiqot predmeti sifatida esa, avvalo, ularning semantik-funksional va struktur-formal xususiyatlari tanlanmoqda.

Turli davrlarda til qurilishi va taraqqiyotidagi fonetik, grammatik va leksik-semantik xususiyatlarni o'rganuvchi til tarixi, jumladan til taraqqiyotining har bir konkret davridagi lug'at tarkibini o'rganishni ham o'z tadqiqot predmeti doirasiga kiritgan. Shuning uchun til tarixida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar uning ushbu taraqqiyot davriga mos ravishda o'rganiladi. Boshqacha aytganda, barcha o'zlashmalar ushbu konkret davrda, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Har qanday til o'zining qo'llanishi va taraqqiy etishini ta'minlaydigan turli-tuman o'zgarishlarni yuzaga chiqaruvchi har xil tashqi va ichki resurslardan foydalanish imkoniga ega. Bundan tashqari, shu tilda so'zlashuvchilarning keng qamrovli hayotida yuz beradigan mayda-chuyda o'zgarishlarni doimiy ravishda sezishga qodir.

Tillararo aloqalar umumxalq tilining mavjudlik shakllari tizimi hisoblangan adabiy til (og'zaki va yozma shaklda), til va dialektlarning so'zlashuv variantlari, shuningdek til tizimining turli sathlarida turlicha namoyon bo'ladi.

Umumxalq tilining shakllanish jarayonida fonologik va grammatik tizim o'zgarishlarga nisbatan barqaror bo'lib, juda sekin rivojlansa, tilning lug'at tarkibi esa doimiy o'zgarishlarga moyil bo'lib, juda tez taraqqiy etadi.

U yoki bu til sohibi yangi predmetlarni nomlash yoki yangi tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlarga doim ehtiyoj sezadi. Bu ichki talab va ehtiyoj, odatda tilning o'zida hayotga tatbiq qilinadi. Agar mazkur tilda kerakli so'zni yasash imkoni bo'lmasa, unda boshqa tildan so'z olishga to'g'ri keladi. Aynan shuning uchun ham ko'plab yangi o'zlashmalar til sohiblari tomonidan boshqa tillardan adabiy tilga hech bir qiyinchiliksiz qabul qilinadi, chunki

bunday soʻzlar ularga ilgari maʼlum boʻlgan soʻzlar bilan assotsiatsiyalanadi va yangidan yasalgan soʻz sifatida baholanadi.

Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish jarayoni, avvalo shu bilan xarakterlanadiki, har bir til egasi xorijiy tillardan istalgan soʻzni qoʻllash maqsadida olishi, talaffuzi va yozilishi oʻxshash boʻlgan oʻz ona tilisidagi soʻzga qiyosan shaklini oʻzgartirishi, shuningdek yangi maʼno berishi mumkin.

Oʻzlashma soʻz turli xil tillarning bir-biriga yo kogerent (zamon bilan moslashtirilgan) yoxud nokogerent (zamon bilan moslashtirilmagan) taʼsiri jarayonida paydo boʻladi va soʻz beruvchi tilga xos hodisalarning qabul qiluvchi tilga (ongli yoki ongsiz ravishda) oʻtishi bilan nihoyalanaadi.

Jamiyat hayoti doimiy harakatda va oʻzgarishda. Bu – katta-kichik, hatto sezilmaydigan darajada sodir boʻladigan voqea, hodisalar va oʻzgarishlardir. Shuningdek, bu muhim yoki unchalik muhim ahamiyatga ega boʻlmagan hodisalarning sodir boʻlishi boʻlib, ular ilgari sodir boʻlmagan yoki sodir boʻlgan boʻlsa-da sezilmagan. Shu bilan birga, ular yangi isteʼmol tovarlaridan tortib, yangi madaniy-tarixiy va ijtimoiy-siyosiy gʻoyalargacha boʻlgan har xil faktlardir.

Tilda sodir boʻladigan har qanday oʻzgarish kabi oʻzlashma soʻzlar ham (neolingvistlar fikriga koʻra) oʻziga xos kelib chiqish tarixiga ega. Soʻz oluvchi til aslida boshqa tilga xos soʻzni emas, balki oʻzlashish vaqtida dastlabki maʼnosini yoʻqotgan soʻzning qandaydir bir nusxasini qabul qiladi. Keyin esa mazkur «nusxa» yangi (hech boʻlmaganda oʻziga yaqin) maʼno bilan toʻldiriladi. Shuningdek, koʻp hollarda soʻz oʻzlashtirish jarayonida faol ijodiy xarakter (masalan, kalkalashda) kuzatiladi.

Oʻzlashma soʻzlarni bir vaqtning oʻzida bir necha nuqtai nazardan tadqiq etish mumkin: soʻz oluvchi tilda ularning vaqtinchalik paydo boʻlishi, soʻzni qabul qilish sohalari, ularning miqdor va sifat tarkibi kabilar shular jumlasidan.

Oʻzlashma soʻzlarning leksik mohiyatini tushunishda keskin farq qiluvchi jihatlar kuzatiladi. Bunday holda soʻz oʻzlashtirish jarayonining asl mohiyatini anglashda hatto bir-biriga zid yondashuvlar mavjudligini ham qayd etish mumkin. Masalan, oʻzlashtirma soʻzni keng tarqalgan anʼanaviy tushunishga (yaʼni, soʻzning bir tildan ikkinchi tilga oʻtkazilishi, oʻzgartirilishi, kirib borishi sifatida) uni tilning ichki resurslari bilan imitatsiya (taqlid) vositasida yasash, boshqa til namunasidagi analogiya asosida struktur jihatdan modellashtirish yoki nusxa olish sifatida izohlash qarama-qarshi qoʻyiladi.

Har qanday tilda boshqa tillardan soʻz olish imkoniyati mavjud. Bu hodisa turli xil sabablarga koʻra sodir boʻladi. Avvalo, soʻz oluvchi tilda u yoki bu tushunchaning umuman mavjud emasligi asosiy sabablardan biridir. Bunday holda ikki yoʻl yuzaga kelishi mumkin: yangi soʻz oʻzi atagan predmet bilan birga oʻzlashtiriladi yoki boshqa tilda kuzatilgan hodisaning ifodasi sifatida paydo boʻladi. Nemis tiliga oʻzlashgan quyidagi soʻzlarni qiyoslaymiz: Kultur, Religion, Computer va shu k.

Koʻp sonli til egalari, muloqot ishtirokchilarining alohida guruhlar va tilshunos olimlarning oʻzlashma soʻzlarga munosabati bir-biridan tubdan farq qiladi.

Til madaniyati nuqtai nazaridan «kerakli oʻzlashma soʻzlar» va «keraksiz oʻzlashma soʻzlar» farqlanadi. «Kerakli oʻzlashma soʻzlar» ga yangi predmet, texnik ixtiro, yangi gʻoya, nomenklatura va h. bilan birga paydo boʻladigan yangi nomlar kiradi. «Keraksiz oʻzlashma

so'zlar»ga tilda mavjud so'zlar bilan sinonim bo'lgan yangi so'zlar, shuningdek boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar kiradi [3; 14-b.].

Odatda, tilda «ortiqcha», «xunuk», «noto'g'ri» so'zlarning paydo bo'lishi va qo'llanishi tilshunoslarda e'tiroz uyg'otadi. Ayniqsa, boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar kuchli norozilik kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda nemis tiliga o'zlashayotgan anglo-amerikanizmlarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Bu tendensiya hozirgi kunda haddan ziyod tezlashdi, buning natijasida yuzaga kelgan muammo davlat miqyosiga ko'tarildi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikrlar va o'tkazilgan tahlillar natijasi quyidagi xulosalarga kelishimiz uchun asos bo'ldi:

Tarixan uzoq davom etadigan tillararo ta'sir natijasi bo'lgan so'z o'zlashtirish – o'ziga xos jarayon. Shuningdek, u mazkur jarayonning natijasi bo'lib, til tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. Til tarixida so'z o'zlashtirishning turlari, shakllari, yo'llari, so'z beruvchi tillar chuqur o'rganiladi. Shu bilan birga, o'zlashma so'zning qabul qiluvchi tilda o'zgarishga uchrashi ham muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning barchasi nom (nominatsiya) ko'rinishida tilning lug'at tarkibidan munosib joy oladi. Oddiy so'zlardan tortib to mukammal nomlar, so'z birikmalari, frazeologizmlargacha bo'lgan birliklarni o'z ichiga olgan yangi leksikani o'zlashtirish jarayoni shu yo'sinda kechadi.

Til lug'at tarkibining o'zlashma so'zlar orqali yangilanib va boyib borishi to'xtovsiz kechadigan jarayondir. Biroq, til taraqqiyoti tarixida shunday davrlar bo'ladiki, bu jarayon nihoyatda shiddat bilan kechadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
2. Ахмедов А. Сўз ўзлаштириш – тиллараро алоқалар ифодаси. Илм сарчашмалари. – Урганч: 9.2021. – Б.67-71.
3. Дойникова М.И. Номинативно-функциональный диапазон современных англоязычных заимствований в немецком языке: На материале прессы и художественной прозы конца 20 и начале 21 вв.: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М.: РГЛУ, 2008. – 24 с.
4. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – 208 с.
5. Чигашева М.А. Специфика процесса заимствования в немецком языке // Филологические науки в МГИМО. – М.: МГИМО. – Университет, 2005. – С.91-99.
6. Glahn R. Der Einfluss des Englischen auf gesprochene deutsche Gegenwartssprache. 2., durchgesehene Auflage, Frankfurt am Main: Peter Lang. 2002. – 215 S.
7. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer, 1992. – 307 S.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).